

## **TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA FAOLIYAT TURLARINI TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI**

**Xudoyberdiyev Pardaboy,**

JDPI Tasviriy san'at va muxandislik  
grafikasi kafedrası mudiri

**Annotatsiya:** Xar bir sohaning faoliyat qonuniyatlari, amal qiladigan tendensiya, qo'llaniladigan texnologiya hamda yondashuvlari mavjud. San'at soxasi bundan mustasno emas. San'atning barcha turlarida bo'lganidek, tasviriy san'atda ham o'zining xususiyatlarini tavsiflovchi omillar, xususiyatlar hamda parametrlari mavjud.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, manzara janri, Didaktik, Perspektiva, tur va janrlari, rangtasvir, idrok etish

Manzara san'atshunoslik termini sifatida, asosan, "peyzaj" (fransuzcha "paysage" - joy, makon, tabiat ma'nosini anglatadi) tarzida qo'llaniladi. Uning janr sifatidagi ifoda vositalarining rang-barangligi bois rangtasvir soxasida asarlar yaratiladi. Chunki tabiat manzarasining go'zalligi undagi detallarning guzalligi bilan bir qatorda ranglarning turli-tumanligida namoyon bo'ladi. Bu omil o'quvchilarda rangshunoslikka oid nazariy bilimlarni amaliy qo'llash uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Shunday bo'lsada, grafik rassomlar ham grafikaning turli texnikalarida jozibali manzara asarlari yaratganlar. Grafik rassomlar Marat Sodiqov, Iskandar Vaxitov, Georgiy Chiganov, Medet Kagarov kabi rassomlarning grafika texnikasidagi manzaralari diqqatga sazovordir. Ularning tajribalari, asarlaridan o'quvchilarning manzara janrida rasm ishlashning qalamtasvir asoslarini egallashlari uchun o'ziga xos na'muna sifatida foydalanish ularning rangtasvirida manzara ishlashlarida tasviriy san'at qonuniyatlari

nuqtai nazaridan ishning belgilangan tartiblar darajasida bo'lishini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshiriladigan tasviriy san'at ta'limi mazmunida o'quvchilarni manzara chizishga o'rgatish murakkab mavzular sirasiga kiradi. Bu murakkablikni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin.

Birinchi, o'quvchilarning manzara chizish yuzasidan dars maqomidagi amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatlari cheklangan.

Ikkinchi, ochik tabiat quynida, bevosita ob'ektdan, naturadan rasm ishlash sinf sharoitidagi vaziyat, xolat, tartib va uning imkoniyatlaridan keskin fark qiladi. Agar sinf sharoitida o'quvchilar statik vaziyatdagi aniq naturadan rasm chizmalar, tabiatda xar tomonlama, ayniqsa, kunning xarakati natijasida yorug-soya xolatlarini o'zgaruvchanligi tufayli ob'ektning rangshunoslik yechimlarini tez va to'g'ri xal etish, ob'ektlarni umumiy aloqadorlikda tasvirlash borasida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Qolaversa, tabiatda ranglarning o'zaro ta'siri ham boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi.

O'quvchilarni manzara janrida rasm ishlashga oid nazariy bilim va amaliy malakalarini shakllantirishda quyidagi komponentlarga e'tibor qaratiladi:

- manzara janrini tasviriy san'atning mustaqil janr sifatida shakllanishi va taraqqiy etish bosqichlari, uning tarixiy ildizlari;
- mashxo'r manzarachi rassomlarning ijodi (milliy va jaxon tasviriy san'atining qiyosiy tahlili misolida);
- manzara janrida amal qilinadigan qonuniyatlarning nazariy va amaliy asoslari (rang, kolorit, gamma, chiziqli va xavo (rang) perspektivasi, kompozitsiya, natura va boshqa elementlarni manzara ishlashdagi o'рни va mohiyati)\*
- manzara ishlashda yordamchi vositalardan foydalanish tartibi

(qalamda ishlangan qoramalar, rangda ishlangan qisqa muddatli ranglavxalar va ularni yaxlit kompozitsiyaga birlashtirishga oid kombinatsiyalar va x.k.);

- o'quvchilarni manzara maqomlarini (industrial manzara, qishloq manzarasi, togli manzara. shaxar manzarasi va x.k.) anglashga o'rgatish;

- manzara kompozitsiyasining mazmuni va motivlari (ulugvor romantik, lirik, ijtimoiy-falsafiy va b.), talqin etilayotgan voqeliqning xususiyatlari.

O'quvchilarni manzara janrida tasviriy faoliyat kursatishga o'rgatish gizimida ularni mazkur janrni tasviriy san'atning aloxida janri sifatida shakllanishi va taraqqiy etishi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, shuningdek, manzara janrida yaratilgan kartinalarning xususiyatlari ga, jumladan, ularning mazmuni, asarda ilgari surilgan motivlarga ko'ra maqomini aniqlash, mustaqil ijodiy faoliyatda unga amal qilish malakalarini shakllantirish alohida ahamiyatga molik ta'limiy vazifalar sirasiga kiradi. Bu omil o'quvchilarda manzarachi rassomlarning asarlarini badiiy-estetik idrok etish, ularning ijodidagi uziga xoslikni anglashga oid bilimlarini shakllantirish hamda olingan tasavvurlarni shaxsiy tasviriy-ijodiy faoliyatga tatbiq etish malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda muhim, ro'l o'ynaydi.

Perspektiva barcha ob'ektlar, buyumlarning konstruksiyalari, shakli ularning makondagi to'g'ri tasvirlashni ta'minlaydi. Faoliyat(janrlar)ning boshqa turlariga nisbatan manzarada perspektivaning ikki ko'rinishi - chiziqli va rangli perspektivaga amal qilinishi yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, natyurmort yoki portret janrlariga tatbiqan bu qonuniyat o'quvchilar tomonidan har doim ham to'g'ri bajarilmasligi mumkin. Chunki bu holat mazkur janrlarda yaqqol kuzga tashlanmaydi. Manzara janriga mansub asarning shartli ravishda uch o'lchovli bo'lishini ifodalovchi

illyuzionistik talqin zamirida tasvir ob'ektidagi borliq, undagi detallarning joylashuvini belgilab beradi. Demak, tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'quvchilarda bu yunalishdagi malakalarni shakllantirishga oid kursatmalari o'quvchilarning tasviriy savodxonligini oshirishning yetakchi omillaridan biri xisoblanadi. Shuning uchun ham tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda manzara ishlashga oid malakalarni shakllantirish va rivojlantirishda ularning perspektivaga oid nazariy bilimlari va amaliy-ijodiy malakalarini tarkib toptirishga ustuvor tarzda qaralishi talab etiladi. Chunki tasviriy san'atning bu janrida mazkur qonuniyatga amal qilmaslik natijasida detallarning uzoqlashgan sari qisqarib borishi (chiziqli perspektiva), ranglarni esa xiralashib, umumiy tusga aylanib borishi (xavo (rang) perspektivasi) kabi qonuniyatlarga amal qilmaslik manzara janrining muhim ko'rsatgichi - ob'ekt (manzarining planliligini buzilishiga olib keladi. Shuning uchun ham o'quvchilarda manzara ishlash malakalarini shakllantirishda perspektiva qonuniyatlarini tushuntirish tasviriy san'at ta'limining dolzarb masalalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining pedagogik faoliyatida o'quvchilarning ishlarida kuzatilayotgan xatolarni tahlil qilib borish va ularga mos metodik yo'nalish va yordam berib borish tasviriy san'at ta'limining barcha sohalari (faoliyat turlari) buyicha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Shuningdek, kamchiliklarning faoliyat turlari, janrlar buyicha klassifikatsiyalab borish mavjud kamchiliklarni batartarf etishga yunaltilgan metodikani to'g'ri tanlash imkonini beradi.

O'quvchilarning ishlarida kuzatiladigan elementar xatoliklar sirasiga ularning manzara tasvirida xavo perspektivasi qonuniyatlariga amal qilmasliklarini kiritish mumkin, ya'ni chiziqli perspektiva qonuniyatiga kura kurish nuqtasidan uzoqlashgan detalning nafakat o'lchamlari qisqaradi, balki ranglari ham umumiyga qarab boradi va uni to'g'ri tasvirlay olish o'rta va

orqa planlardagi detallarni yaxlit tarzda tasvirlash imkonini beradi. Bu talablarni e'tiborga olmasdan to'g'ri manzara tasvirini hosil qilib bo'lmaydi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarda manzara ishlash malakalarini shakllantirish jarayonida qullaydigan metodikasida o'quvchilarda tasvirlanayotgan manzaraning maqomini to'g'ri belgilashga yunaltirish, ijodiy topshiriq; mazmunini shunga monand tanlash tavsiya etiladi. Shundagina aniq maqom (kurinish)dagi manzara, masalan, lirik kayfiyatdagi (erta tong, charogon kun, sokin okshom, kun botishi va xk. mavzular) manzara ishlashda boshqa ko'rinishdagi manzara kompozitsiyalariga nisbatan uzgacha detallar qo'llaniladi. Manzara ishlashning bu omillarini o'qituvchi professional rassomlar tomonidan ishlangan manzara janriga oid tasviriy san'at asarlarining reproduksiyalari - illyustrativ materiallarni namoyish etish hamda o'quvchilar bilan utkaziladigan savol-javoblar vositasida rassom tomonidan qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalarni tahlil qilish orqali tushuntirib berishi tavsiya etiladi, ya'ni nazariy asos bilan amaliy tatbiqni alokadorlikda qo'llash malakalarini shakllantirish orqali o'quvchilarda manzara ishlashga oid amaliy-tasviriy kompetansiyalarini rivojlantirib borish mumkin.

Maktab o'quvchilarining yoshi, tasviriy-ijodiy malakalarining shakllanganlik va rivojlanganlik darajasiga ko'ra kup detalli manzara ishlash tavsiya etilmaydi. Chunki detallarning ko'pligi ularning kompozitsion yaxlitligini, tasvirning umumiy xolati (kompozitsiyasi, kolorita va boshqa ko'rsatgichlari)ni ta'minlash imkoniyatlarini cheklab quyadi.

Bu turdagi manzara asarlarining e'tiborli jixati shundaki, ularda yirik planlar asosiy ob'ekt sifatida tanlanmaydi, balki oddiygina kucha, uyning bir kismini muayyan vokelik bilan alokadorlikda tasvirlanishi bilan ajralib turadi. Ularda oddiy vokelikka poetik ruh berish asosiy motiv sifatida tasvirlanadi.

Manzara janrida ishlashda rasomlar tomonidan alohida e'tibor qaratiladigan uchinchi element sifatida manzara detallari (daraxt, tog', tosh, suqmoq, jilga, jonli mavjudod figuralari va xk.)ni e'tirof etish mumkin. Masalan, bo'lutlar tabiat manzarasining kayfiyatini belgilab berishning muhim komponenti xisoblanadi. Tasvirlangan manzarada bo'lutning yukligi ham bir yondashuv, ijodiy topilma, aslida. Biroq, manzarada bu elementlarni xaddan ziyod ko'p bo'lishi ham umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilariga murakkablik qilishi mumkin. Zero, xar bir detalni ishlash, ayni paytda ularni tasvirning umumiy xolati (kompozitsiyasi, koloriti va boshqa kursatgichlari)ga buysunishini saqlab qolish talab etiladi.

Tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarni manzara ishlashga o'rgatish metodikasida tasvir uchun tanlanadigan ob'ektning tasvir mazmuni bilan mutanosibligiga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, ona yurtim saxovati deb ataluvchi manzara kartinasi yaratiladigan bo'lsa, albatta inson uchun rizq- ro'z unadigan joylar (masalan, boglar, bugdoyzor, poliz ekinzorlari va x,k.) tanlanishi tavsiya etiladi. Shuningdek, ob'ekt tanlashda maktab o'quvchilarini katta xajmdagi manzara ishlashga da'vat etish maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun o'qituvchining pedagogik faoliyatida qo'llaniladigan metodik yondashuvlarida mavzu-mazmun-ob'ekt mutanosibli masalasini o'quvchilarga ishonarli tarzda tushuntirish metodlari mavjud bo'lmog'i lozim.

O'quvchilarni manzara ishlashga o'rgatish metodikasi tizimida tasviriy san'atning qonuniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini tavsdim etilishi muhim rol uynaydi. Ayniqsa, manzara ob'ekti perspektiva qonuniyatlarini ifodalash uchun qulay joy bo'lishini ta'minlash maksadida ob'ektdagi detallarning o'lchami uzoqlashgan sari kichrayib borishi (chiziqli perspektiva) va ranglarini xiralashib, umumiy xolatga kelishi (xavo perspektivasi) kabi jixatlarni tasvirlay olish uchun planlilik yaqqol ko'zga

tashlanadigan ob'ekt tanlanadi.

O'quvchilarni manzara ishlashga o'rgatishda iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash masalasi ham badiiy ta'limning muhim masalalari sirasiga kiradi. Zero, tasviriy san'atda uning aniq bir janriga (portret, natyurmort, manzara va x.k.) alohida qiziqishi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashda qo'shimcha materiallarga monand tarzda ularga mos metodlardan foydalaniladi. Bu omilning ta'limiy va tarbiyaviy samarasi shundaki, iqtidorli o'quvchilar o'zlarining ijodiy faolligi va intilishi bilan boshqa o'quvchilarga ijobiy ta'sir etadi. Natijada sinfning umumiy badiiy qiziqish darajasi ortib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abdirasilov S "Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Toshkent. "Ilm-ziyo"-2011 yil
2. Abdirasilov S Tolipov N Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma Toshkent Aloqachi, 2007 yil.
3. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Darslik Toshkent Fan va texnologiya nashriyoti 2012 yil
4. Ro'ziyev E.I., Ashirboyev A.O. „Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi“ darslik Toshkent „Fan va texnologiya 2010 yil.